

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403516>

Pulatova M.B.

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Moliya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy jihatlari yoritilgan. Globallashuv murakkab jarayon bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat barqaror rivojlanishining asosiy omiliga aylanib bormoqda, shuning uchun uni globallashuv sharoitida tahlil qilish strategik ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: eksport, import, tashqi savdo, globallashuv, tashqi iqtisodiy faoliyat

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning asosiy davlatlaridan biri sifatida o‘zining tabiiy resurslari va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish salohiyati bilan jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Globallashuv va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv sharoitida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati uning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omiliga aylanib bormoqda. Biroq, tashqi savdo operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun etarli moliyalashtirish talab etiladi, bu esa ushbu jihatni o‘rganishni juda muhimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlarini, eksport va import tarkibini, shuningdek, so‘nggi yillardagi tashqi savdo operatsiyalari dinamikasini o‘rganishni tahlil qilish O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasini, jahon bozoridagi raqobatbardoshligini va eksport-import operatsiyalarining asosiy yo‘nalishlarini baholash imkonini beradi. O‘zbekiston tashqi savdo dinamikasini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval.

Tashqi savdo (mln.AQSh doll)¹

Deskriptor	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023 yil uchun prognoz*
Tashqi savdo: Tovar va xizmatlar eksporti	12,553.7	13,990.7	17,458.7	15,102.3	16,662.8	19,293.7	21,179.07
Tovarlar eksporti (FOB narxlarida)	10,079.2	10,920.7	14,023.8	13,097.3	14,081.1	15,275.9	16,685.98

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

Paxta	477.1	222.1	281.6	146.9	136.6	3.5	2,247.411
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	883.7	905.3	878.1	873.2	1,225.3	1,426.2	1,584.795
Qora metallar	152.8	320.3	302.7	317.5	184.6	215.1	251.0986
Rangli metallar	761.9	851.5	951.3	924.4	1,467.0	1,442.9	1,667.149
Energetika va neft mahsulotlari	1,607.6	2,666.8	2,528.9	659.0	914.8	1,215.2	1,357.206
Mashina va asbob-uskunalar	354.8	212.8	427.1	442.0	702.5	989.3	1,313.658
Oltin	3,260.0	2,909.5	4,918.3	5,804.4	4,109.8	4,110.3	4,497.693
Oziq-ovqat mahsulotlari	875.9	1,097.8	1,529.9	1,443.8	1,471.8	1,823.5	2,133.137
Xizmatlar eksporti	2,474.5	3,070.0	3,434.8	2,005.0	2,581.7	4,017.8	4,650.287
Qurilish	37.1	36.7	41.9	42.3	14.6	9.8	8,147.408
Transport	1,600.7	1,687.9	1,765.7	1,426.1	1,744.1	1,765.9	1,816.66
Safarlar (turizm)	546.9	1,041.1	1,313.0	255.8	422.1	1,609.8	2,840.824
Boshqa xizmatlar	289.8	304.3	314.2	280.8	400.9	632.4	756.5305
Boshqalar	1,705.3	1,734.5	2,206.0	2,486.1	3,868.7	4,049.8	4,875.048
Tovar va xizmatlar importi	14,012.4	19,439.3	24,292.3	21,153.8	25,507.7	30,767.8	36,427.73
Tovarlar importi (SIF narxlarida)	12,035.2	17,312.3	21,866.5	19,932.4	23,740.4	28,220.3	33,823.91
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	2,187.0	2,527.6	3,201.7	3,436.7	4,259.6	5,046.5	5,975.069
Qora metallar	1,135.7	1,579.8	1,843.4	1,473.6	1,986.3	2,345.0	2,760.438
Rangli metallar	139.3	193.5	273.5	277.7	328.4	476.1	614.1889
Energetika va neft mahsulotlari	742.1	879.5	940.6	1,106.9	1,556.8	1,795.1	2,150.869
Mashina va asbob-uskunalar	4,997.0	8,366.1	10,633.4	8,904.2	9,454.0	11,018.4	13,243.76
Oziq-ovqat mahsulotlari	1,273.9	1,581.6	1,885.0	2,159.6	2,925.8	3,953.2	4,969.164
Xizmatlar importi	1,977.2	2,127.0	2,425.9	1,221.4	1,767.3	2,547.5	2,857.37
Qurilish	102.6	14.7	27.4	107.2	135.6	75.7	117.2262
Transport	303.0	383.7	415.1	165.6	211.1	406.1	482.9019
Safarlar (turizm)	1,358.9	1,506.9	1,651.5	442.5	886.9	1,429.8	1,741.277
Boshqa xizmatlar	212.6	221.7	331.9	506.1	533.7	635.8	802.452
Boshqalar	1,560.2	2,184.1	3,088.9	2,573.7	3,229.4	3,586.0	4,312.203
Tovar va xizmatlar tashqi savdo aylanmasi	26,566.1	33,430.0	41,751.0	36,256.1	42,170.5	50,061.5	57,329.6
Tovar va xizmatlar tashqi savdo balansi	-1,458.6	-5,448.5	-6,833.6	-6,051.5	-8,844.9	-11,474.0	-19,813.4
Tovarlar tashqi savdo balansi	-1,956.0	-6,391.6	-7,842.6	-6,835.1	-9,659.3	-12,944.4	-21,020.5
Xizmatlar tashqi savdo balansi	497.4	943.0	1,009.0	783.6	814.4	1,470.4	1,937.183

* Muallif tomonidan ekstorpolyatsiya usulida hisob kitob qilingan

Yuqoridagi ko'rsatilgan jadvalni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, tashqi savdoda oxirgi yillarda (2017-2022 yilgacha bo'lgan xolatda, 2023 yil uchun прогноз) "minus" saldoni tashkil etmoqda. Bu kursatkich ichida eng ko'zga tashladigan ko'rsatkich paxta eksporti. 2022 yil 10-mart kuni Cotton Campaign xalqaro koalitsiya O'zbekiston paxtasiga global boykot e'lon qilish chaqirig'i tugaganini e'lon qildi, deb xabar berdi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

matbuot xizmati “Gazeta.uz”ga² (Eslatib o‘tamiz, 2009-yilda O‘zbekiston fuqarolik jamiyati faollarining o‘zbek paxtasini boykot qilishga chaqiruvchi petitsiyasiga (boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, boykot 2006 yildan beri e’lon qilingan) javoban kompaniyalar shaxsiy majburiyatlarni olishga kirishgan, Paxta kampaniyasi esa o‘zbek paxtasiga boykot e’lon qilgan. O‘shandan beri C&A, Gap, H&M, Levi Strauss&Co, Tesco va Walmart kabi 331 brend va chakana savdo kompaniyalari o‘zbek paxtasini boykot qilishga va’da berishdi). Ammo paxtadan olib tashlangan boykot uning eksportiga ijobiy ta’sir etmagan, ya’ni 2017 yil paxta eksporti 477,1 mln AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yil 3,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu taxminan 136 barobarga tushganini anglatadi. Tovarlar eksporti 2017 yilda 10 079,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan, 2022 yil 15 275,9 mln. AQSh dollar bo‘lgan. Bu shu yillar ichida atigi 1,5 barobarga oshganligini anglatadi. Bu o‘z navbatida paxta eksportining kamayishi tayor maxsulot eksportiga o‘tgamimiz hisobiga emasligidan dalolat beradi. Tashqi savdo balansida ko‘pligi jihatidan oltin eksportining o‘rni katta. Dunyo bo‘yicha oxirgi yillarda O‘zbekiston oltin eksporti bo‘yicha etakchi bo‘lib turibdi. Mashina va asbob uskunalar balansiga to‘xtaladigan bo‘lsak xavas qiladigan darajada emasligini ko‘rishimiz mumkin. 2022 yilda bu balans -10029,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Oziq-ovqat maxsulotlari balansi shu yili -2129,7 mln. AQSh dollari tashkil etgan. Tashqi savdo balansida faqat xizmatlar balansida plyus balansni kuzatishimiz mumkin: 2022 yil bu balans 1470,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Afsuski bu ko‘rsatkichlar quvontiradigan raqamlar emas.

O‘zbekiston globallashuvning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish va tashqi iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirish uchun foydalanishi, yangi eksport yo‘nalishlarini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, savdo shartnomalarini ishlab chiqish va xalqaro savdo-iqtisodiy tashkilotlarda faol ishtirok etishni o‘z ichiga olishi muhim hisoblanadi.

² <https://www.gazeta.uz/ru/2022/03/10/cotton-campaign>

Xulosa sifatida tahlil natijalari umumlashtirilib, globallashtirish sharoitida O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining bugungi holati to'g'risida xulosalar eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va globallashtirish sharoitida O'zbekistonning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga va tashqi savdoni rivojlantirish bo'yicha bo'yicha tavsiyalar:

- Asosiy savdo hamkorlari bilan strategik savdo shartnomalarini joriy etish O'zbekistonning eksport portfelini diversifikatsiya qilish va muayyan tarmoqlar va bozorlarga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi;

- Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarmoya kiritish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali mahalliy tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish eksport hajmini oshirish va importni kamaytirishga xizmat qiladi, bu esa tashqi savdo balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- Qo'shni davlatlar bilan savdoni yaxshilash va jahon bozorlariga chiqish uchun infratuzilma va logistika tizimlarini rivojlantirish transport xarajatlarini kamaytirish va savdo samaradorligini oshirishga yordam beradi, tashqi savdo balansining barqarorligini ta'minlaydi;

- Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini joriy etish, jumladan, kadrlar tayyorlash, moliyaviy va maslahat yordamidan foydalanish tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va yangi eksport yo'nalishlarini rivojlantirish orqali O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Пулатова, М. Б. "Саноат корхоналарининг ташқи иқтисодий фаолиятини молиялаштиришда инвестициялардан самарали фойдаланиш йўллари." PhD дисс. автореф 14 (2018).

2. Bahodirovna, Sultabaeva Munira, and Pulatova Mokhira Bakhtiyorovna. "ANALYSIS OF THE BENEFITS AND CHALLENGES IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 15 (2023): 22-26.

3. Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46–54.

4. Пулатова, М. (2015). Особенности развития сети легкой промышленности и источники финансирования. Экономика и инновационные технологии, (6), 186–192. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/8560

5. Stat.uz

6. gazeta.uz

